

O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHATDAN TAHLILLARI

Quvondiqova Hamida Nasriddin qizi

O‘zMU geografiya va geoaxborat tizimlari fakulteti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston siyosiy mustaqillikga yetishgandan so‘ng iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o‘tishi sharoitida shaharlarning ahamiyati katta bo‘lib qoldi. Sababi bu davrda shaharlar o‘zlarining an’anaviy funksiyalari bilan bir qatorda bozor islohatlarini amalga oshiruvchi infratuzilma vazifasini ham bajaradilar. O‘z navbatida, shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayoni mamlakatning turli hududlarida o‘ziga xos xususiyatga ega. Bunga turli ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va siyosiy omillar ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, tabiiy sharoit, resurs, shahar, shaharcha, ruurbanizatsiya.

ASOSIY QISM

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan barcha sohalarda yangi iqtisodiy islohatlar aytish joizki respublikamiz hukumati tomonidan urbanistik tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham bir qator islohatlar amalga oshirila boshlandi. Xususan O‘zR Prezidentining 2005-yil 14-iyulda “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlari ma’muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan. Shuningdek, 2009-yilda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturining qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martda “O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2016-yil 5-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shahar va shahar posyolkalari hududlarini rivojlantirish va qurish bo‘yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlar shular jumlasidandir.[2, 69b]

Istiqlol davlarida mulkchilikning turli tuman shakllari xususan kichik va xususiy biznesni kuchaytirish, qulay investetsiya muhitini yaratish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga juda katta etibor qaratildi.[3, 10b] Bularning samarasi o‘laroq mamlakatimizda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, transport (yagona temir yo‘l tizimining yaratilishi) kommunikatsiya hamda ijtimoiy sohalarning o‘sishi kuzatildi.

Yutuqlar bilan bir qatorda mustaqillik davrlarida shahar va shahar joylarining taraqqiyoti, ayniqsa yangi shahar manzilgohlarining vujudga kelishi deyarli to'xtadi. 1959-yili davlatimizda jami 101 ta shahar aholi manzilgohi qayd etilgan bo'lsa, 1970-1980 yillarda xalq xo'jaligi kompleks rivojlantirish hamda shahar maqomini berish tartibi 10 mingdan 7 mingga tushirilishi natijasida urbanizatsiya tez o'sdi. Yillik shahar aholisining o'sishi 4,4% teng bo'lib yil davomida o'rtacha 5-6 tadan yangi shaharlar paydo bo'ldi. 1980-1991 yillar hamda undan keyingi davlarda turli xil siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta'sirida urbanizatsiya darajasi yiliga 0,5-0,6 foizdan kamayib bordi. 2008 yilga kelib shaharlashuv darajasi 35,8% ga tushib qolgan bo'lib XXI asr boshidan to 2009 yilgacha atiga 2 ta shahar vujudga kelgan. Bular 2004-yilda Karmana tumani tashkil topishi munosabati bilan Karmana Navoiy shaharidan ajratilib alohida shaharcha sifatida ruyhatga olingan bo'lsa, ikkinchisi 2005 yilda Qo'ng'irotda soda zavodining ishga tushirilishi bilan Elobod shaharchasi tashkil topdi. 2009-yilda davlatimiz aholisining aksariyati qishloqlarda yashishini inobatga olgan holda, ularga shahar turmush tarzini, madaniyatini olib kirish, infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009.03.13 dagi qaroriga muvofiq 965 ta qishloqqa shaharcha maqomi berilishi respublika urbanizatsiyasining o'ziga xos yangi boshqichi bo'ldi deyimishimiz mumkin. Shahar aholisi 2008 yilda 9,6 mln tashkil etgan bo'lsa, 2009-yilga kelib 14,3 mlnga yetganligini, urbanizatsiya darajasi 51,7% ga kutarilganligini ko'ramiz. Ayniqsa aholi soni yuqori bo'lgan Farg'ona iqtisodiy rayoniga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, Namangan viloyati 64,6%, Farg'ona viloyati 58,7% va uchinchi o'rinda Andijon viloyati 53,1% shahar aholisi qayd etilgan.[2,66b] Respublika iqtisodiyotining asosan qishloq xo'jalik mahsulotlar yetishtirishga hamda qayta ishlash sohalarining rivojlanganli uchun 4/5 qismini kichik shaharchalar tashkil etadi. Ammo shahar infratuzilmasi, shahar madaniyati, xo'jalik tarmoqlari, arxitekturasi jihatdan "soxta urbanizatsiyaning bir ko'rinishidir. O'zbekiston Respublikasi shahar manzilgohlari mamlakat mintaqalari bo'yicha notekis taqsimlangan. Demografik

salohiyati yuqori, iqtisodiyoti nisbatan barqaror bo‘lgan iqtisodiy rayonlarda shaharlar to‘ri ham yaxshi rivojlangan.

O‘zbekiston shaharlarini tasnifiga bo‘yicha soni.

Shahar manzilgohlari kategoriyasi	Shaharlar soni
10 minggaacha	3
10-20 ming	24
20-50 ming	46
50-100 ming	24
100-250 ming	9
250-500 ming	6
500-1000 ming	2
1 mln va undan ortiq	1

1-jadval muallif tomonida 2023 yil yanvar holatiga ko‘ra O‘zR Statistika agentligidan olingan ma’lumotlar asosida tuzilgan.(ming kishi)

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki 10 minggaacha aholiga ega bo‘lgan shaharlar soni 3 ta tashkil etadi. Bular Navoiy viloyatidagi G‘ozg‘on shahrining 9097 ming aholiga va Buxoro viloyatidagi Gazli shahrida 8279 kishiga ega bo‘lib resurs negizida bunyoq etilgan. 10-20 ming kishi istiqomat qiluvchi shaharlarimiz asosan tuman markazlariga to‘g‘ri kelmoqda. 20-50 minglik shaharlar sanoat markazlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo‘lgan bo‘lan viloyatlarda shaharlar to‘ri ancha zich joylashgan. O‘zbekistonda shaharlar to‘ri zichligi bo‘yicha Farg‘ona, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Toshkent, Samarqand viloyatlari yuqori o‘rinlarni egallasa quyi pog‘onalarda Qoraqolpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy, Xorazm viloyatlari joy olgandir. Davlatimizdagi juda ko‘p shahar va shaharchalar agroindustrial xarakterga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligi xom ashyolarini qayta ishlashga ixtisoslashgandir. Respublikamizda 19 ta yuz minglik shahar mavjud bo‘lib, ularda ishlab chiqarish , transport, xizmat ko‘rsatish muassasalari, shahar infratuzilmasi, arxetikturasi jihatdan umuman qaralganda har tomonlama “shahar” manzarasini oladi. Quyida ushbu shaharlarda aholi soni o‘shining yillar kesimida ko‘rib chiqamiz.

2 jadval. Respublika katta va yirik shaharlar aholi sonining o‘shishi, ming kishi (2000-2023yy.)

Shaharlar	2000	2008	2016	2023
Angren	129,0	133,4	149,8	178,5
Andijon	334,3	363,8	416,3	468,0
Buxoro	239,1	241,8	250,6	264,2
Bekobod	84,5	86,0	88,4	102,0
Jizzax	128,9	140,9	167,4	191,6
Marg‘ilon	156,0	172,3	195,8	219,1
Navoiy	140,9	124,6	133,6	155,9
Namangan	386,2	425,5	493,3	365,6
Nukus	206,7	263,8	301,3	334,5
Olmaliq	114,7	121,1	124,3	141,8
Samarqand	361,1	367,1	491,6	572,8
Termiz	113,5	127,4	140,1	195,6
Toshkent	2135,5	2173,2	2393,2	2956,3
Urganch	139,2	135,1	138,6	149,9
Farg‘ona	185,2	188,8	271,0	314,4
Chirchiq	143,3	142,2	151,8	168,0
Qarshi	201,3	223,1	254,2	281,7
Qo‘qon	197,4	208,7	239,9	294,7
Shahrisabz	87,1	92,7	103,5	144,7

Jadval Respublika statistika Bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ma’lumotlardan ham ko‘rishimiz mumkinki katta va yirik shaharlarning iqtisodiy geografik jihatdan tashkil topishiga va joylashishiga ko‘ra Toshkent viloyati birinchi o‘rinni egallaydi. Ushbu viloyatda mamlakatimizdagi mineral resurslar bilan yaxshi ta’minlangan, demografik salohiyati yuqori eng yirik iqtisodiy rayonlar Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod shaharlari mavjud. Keyingi o‘rinlarda Farg‘ona viloyatidagi Farg‘ona shahri hamda qadimiy hunarmandchilik markazlari bo‘lmish Qo‘qon, Marg‘ilon hamda yaqin kelajakda Quvosoy shahri katta shaharlar safiga qo‘shilish arafasida.

Bugungi kunda davlatimizda 120 shahar va 1071 shaharchalar mavjud bo‘lib ushbu ko‘rsatgich o‘z navbatida mamlakatimizning rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi omil sanaladi.

XULOSA

Shaharlar hamma davrlarda va har doim davlatlarning qudratini ko‘rsatib turuvchi vosita bo‘lgan. Shu bois hukumatimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki yillaridanoq urbanizatsiya darajasini ko‘tarish borasida say harakatlari amalga oshirila boshlandi. Buning natijasi shahar va shaharchalar salmog‘i keskin oshgan bo‘lsada

ruurbanizatsiya hisobiga amalga oshirildi. Bugungi kunda shahar va shaharchalar orasidan qulay geografik o'ringa ega bo'lgan yetakchi shaharlarni belgilab olishimiz va bosqichma bosqich rivojlantirishimiz maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF 5623-sonli "Urbanizatsiya jarayonini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" Farmoni.
2. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K, Egamberdieva M.M. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.- T., "Vneshinvestprom", 2019.
3. Mavlonov A.M., Cho'l sharoitida shaharlarning shakllanish va rivojlanish muommolari (Buxoro viloyati misolida) g.f.n darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Buxoro 2019y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari